



2024-yil yanvar-iyun oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi qisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(66) 235-65-80



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 422,0 mln. AQSh** dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **259,0 mln. AQSh** dollariga yoki **22,3 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollar)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y. **1 422,0** +22,3 %
(2023-y. **1 163,1**)



Saldo

2024-y. – **687,2**
(2023-y. – **589,9**)



Eksport

2024-y. **367,4** +28,2 %
(2023-y. **286,6**)



Tovarlar: **339,2**



Xizmatlar: **28,2**



Import

2024-y. **1 054,6** +20,3 %
(2023-y. **876,5**)



Tovarlar: **1 051,9**



Xizmatlar: **2,7**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **367,4** mln. AQSh dollariga (**28,2** % ga ko‘paydi) va import hajmi **1 054,6** mln. AQSh dollariga (20,3 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **687,2** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-iyun mln. AQSh dollari va ulushi, foizda)



Rossiya TSA – 354,0 Eksport: 122,4 Import : 231,6  24,9 %	XXR TSA – 296,8 Eksport: 39,2 Import: 257,7  20,9 %	Qozog‘iston TSA – 119,0 Eksport: 43,7 Import: 75,3  8,4 %	Turkiya TSA – 108,6 Eksport: 22,2 Import: 86,4  7,6 %	Sloveniya TSA – 79,8 Eksport: 0,0 Import: 79,8  5,6 %
Germaniya TSA – 41,3 Eksport: 2,6 Import: 38,6  2,9 %	Tojikiston TSA – 31,2 Eksport: 26,7 Import: 4,5  2,2 %	Polsha TSA – 25,1 Eksport: 1,2 Import: 23,9  1,8 %	Hindiston TSA – 24,1 Eksport: 2,3 Import: 21,8  1,7 %	Yaponiya TSA – 23,3 Eksport: 0,0 Import: 23,3  1,6 %



SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Rossiya Federatsiyasi	354,0	272,8	226,1
	<i>Eksport</i>	122,4	84,1	58,2
	<i>Import</i>	231,6	188,7	167,9
	Xitoy Xalq Respublikasi	175,2	276,5	296,8
	<i>Eksport</i>	24,5	19,9	39,2
	<i>Import</i>	150,7	256,6	257,6
	Qozog'iston	185,6	156,9	119,0
	<i>Eksport</i>	50,2	53,5	43,7
	<i>Import</i>	135,4	103,4	75,3
	Turkiya	90,3	85,0	108,6
	<i>Eksport</i>	38,8	18,3	22,2
	<i>Import</i>	51,5	66,7	86,4
	Sloveniya	23,7	18,9	79,8
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	23,7	18,9	79,8
	Germaniya	25,4	22,3	41,3
	<i>Eksport</i>	1,3	2,2	2,6
	<i>Import</i>	24,1	20,1	38,7
	Tojikiston	31,2	33,1	31,2
	<i>Eksport</i>	27,7	28,4	26,7
	<i>Import</i>	3,5	4,7	4,5
	Polsha	13,5	24,1	25,1
	<i>Eksport</i>	5,6	1,4	1,2
	<i>Import</i>	7,9	22,7	23,9
	Hindiston	32,1	17,2	24,1
	<i>Eksport</i>	0,3	1,3	2,3
	<i>Import</i>	31,7	15,9	21,8
	Yaponiya	48,3	1,4	23,3
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	48,2	1,4	23,3




Davomi

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	BAA	3,0	4,9	22,4
	<i>Eksport</i>	1,7	2,4	17,1
	<i>Import</i>	1,3	2,5	5,4
	Qirg'iz Respublikasi	21,8	13,1	21,9
	<i>Eksport</i>	20,1	11,0	20,2
	<i>Import</i>	1,7	2,1	1,7
	Litva	17,0	17,4	20,0
	<i>Eksport</i>	4,4	2,0	0,7
	<i>Import</i>	12,6	15,3	19,3
	Eron	18,2	20,0	18,9
	<i>Eksport</i>	2,9	2,4	3,7
	<i>Import</i>	15,3	17,5	15,3
	Latviya	13,4	15,9	16,6
	<i>Eksport</i>	1,0	0,8	0,5
	<i>Import</i>	12,4	15,1	16,1
	Gruziya	13,1	11,4	16,0
	<i>Eksport</i>	3,6	3,4	3,3
	<i>Import</i>	9,5	8,0	12,8
	Afg'oniston	21,3	8,7	15,3
	<i>Eksport</i>	20,9	8,0	13,8
	<i>Import</i>	0,4	0,7	1,6
	Ozarbajjon	8,0	7,8	15,0
	<i>Eksport</i>	7,4	6,2	12,7
	<i>Import</i>	0,6	1,5	2,3
	Italiya	8,5	12,7	12,7
	<i>Eksport</i>	3,8	2,6	1,1
	<i>Import</i>	4,7	10,1	11,6
	Bangladesh	6,5	8,9	11,6
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	6,5	8,9	11,6



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-iyun, mln. AQSh doll. ¹⁾)




2023-y.

2024-y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (58,5 % yoki 832,2 mln. AQSh dollar), eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani (0,2 % yoki 2,5 mln. AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **40,1** % ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2023-yilning mos davriga nisbatan ulushi **4,0** % ga kamaygan.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan **30,9** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **59,9** % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra, **570,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **237,8** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **332,5** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

Rossiya

TSA – 354,0
Eksport – 122,4
Import – 231,6



Qozog'iston

TSA – 119,0
Eksport – 43,7
Import – 75,3



Tojikiston

TSA – 31,2
Eksport – 26,7
Import – 4,5



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 21,9
Eksport – 20,2
Import – 1,7



Ozərbayjan

TSA – 15,0
Eksport – 12,7
Import – 2,3



Belarus Respublikasi

TSA – 10,0
Eksport – 4,4
Import – 5,6



Ukraina

TSA – 9,8
Eksport – 3,0
Import – 6,8



Turkmaniston

TSA – 7,0
Eksport – 3,6
Import – 3,4



Moldova

TSA – 1,5
Eksport – 0,9
Import – 0,5



Armaniston


TSA – 0,9
Eksport – 0,3
Import – 0,6



Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (62,1 %), Qozog'iston (20,9 %) hamda Tojikiston (5,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi foizda)



 Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **505,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **190,9** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **314,9** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YeOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan **367,4** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan **128,2 %** ni tashkil etgan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST¹ BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-iyun, ulushi foizda)



 O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	286,6	367,4	95,7	128,2	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	104,7	120,7	109,9	115,3	36,5	32,9
Ichimliklar va tamaki	3,3	0,4	124,8	12,1	1,2	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,4	10,1	57,8	136,8	2,6	2,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,02	11,6	0,3	728,3 m.	0,0	3,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,3	7,8	37,6	180,0	1,5	2,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2,6	4,8	15,8	186,6	0,9	1,3
Sanoat tovarlari	81,5	111,3	79,7	136,5	28,4	30,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	38,7	51,7	170,1	133,7	13,5	14,1
Turli xil tayyor buyumlar	26,7	20,8	114,7	77,9	9,3	5,7
Xizmatlar	17,4	28,2	2,2 m.	162,3	6,1	7,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **92,3 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**32,9 %**), sanoat tovarlari (**30,3 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**5,7 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-iyun)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	89,1	105,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	9,9	74,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	6,6	-
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,4	12
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7,5	2,2 m.
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	1,5	73,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11,6	15 122,3 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simliklar moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	7,7	179,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	2,4	8,2 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	0,5	55,3

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	49,9	189,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	36,6	95,8
Rangli metal	15,2	171,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7,2	110,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	44,9	134,5
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	3,5	100,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar lar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2,4	170,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	17,2	76,3
Poyafzal	2,4	82,8
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,8	143,9
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	50,0
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	10,7	152,8
Turizm xizmatlari	12,7	176,4

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariga **237,8** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **64,7 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **33,3 %**) va Qozog'iston (**11,9 %**) davlatlari yetakchilik qildi. Ulushi yuqori bo'lgan yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **79,3 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, 2024-yil yanvar-iyun, % da






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI, (yanvar-iyun)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya Federatsiyasi	84,2	122,4	144,6	145,4	1	1
Qozog'iston	53,5	43,7	106,6	81,6	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	19,9	39,2	81,4	196,9	4	3
Tojikiston	28,4	26,7	102,8	94,1	3	4
Turkiya	18,3	22,2	47,2	121,1	5	5
Qirg'iz Respublikasi	11,0	20,2	54,8	183,9	6	6
BAA	2,4	17,1	140,3	7,2 m.	16	7
Afg'oniston	8,0	13,8	38,4	171,6	9	8
Ozarbajjon	6,2	12,7	84,4	2,0 m.	10	9
Belarus Respublikasi	8,5	4,4	108,4	51,5	8	10
Eron	2,4	3,7	82,4	151,8	15	11
AQSH	2,5	3,6	98,5	146,3	14	12
Turkmaniston	2,8	3,6	132,8	126,3	12	13
Gruziya	3,4	3,3	95,0	97,4	11	14
Ukraina	2,2	3,0	104,0	136,9	18	15
Germaniya	2,2	2,6	168,9	120,4	17	16
Hindiston	1,4	2,3	4,0 m.	170,6	23	17
Iroq	1,1	1,7	115,1	162,2	25	18
Polsha	1,4	1,2	26,0	85,2	22	19
Italiya	2,6	1,1	69,0	42,3	13	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-iyun, mln. AQSh doll. ¹)



ViLOYAT eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **45,2 %** ulush bilan **135,7** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani **0,2 %** ulush bilan **0,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-iyun oylarida **72,9 mln. AQSh dollarlik 81,6 ming tonna** meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan **6,6 mln. AQSh dollariga ko'paydi**.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (**35,3 %**), XXR (**11,9 %**), Turkiya (**11,4 %**), hamda Ozarbayjon (**6,5 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-iyun, qiymatga nisbatan o'sish sur'atlari)

Uzum yangi uzilgan 14,5 mln. AQSh dollari 9,5 ming tonna 83,9 % 	Meva va rezavorlar 29,8 mln. AQSh dollari 19,3 ming tonna 122,6 % 	Qalampir 2,6 mln. AQSh dollari 1,0 ming tonna 3,8 m. 	Sabzavotlar 24,3 mln. AQSh dollari 49,6 ming tonna 113,2 % 
Uzum quritilgan 14,5 mln. AQSh dollari 9,5 ming tonna 83,8 % 	Yeryong'oc 1,3 mln. AQSh dollari 1,1 ming tonna 65,0 % 	Qovun va tarvuz 0,4 mln. AQSh dollari 1,1 ming tonna 82,6 % 	



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-iyun)

Davlatlar	Ming tonna	Mln. AQSh dollari	Ulushi, % da
 Rossiya Federatsiyasi	26,1	25,7	35,3
 Xitoy Xalq Respublikasi	9,2	8,7	11,9
 Turkiya	4,6	8,3	11,4
 Ozarbayjon	2,7	4,7	6,5
 Belarus Respublikasi	3,5	3,3	4,5
 Gruziya	3,2	3,0	4,1
 Qozog'iston	9,8	2,7	3,7
 Eron	2,5	2,5	3,4
 Ukraina	2,4	2,5	3,4
 Iroq	5,5	1,7	2,3
 AQSh	0,3	1,2	1,7
 BAA	3,9	1,2	1,6
 Germaniya	0,4	1,0	1,4
 Polsha	0,9	1,0	1,3
 Braziliya	0,7	0,8	1,1
 Boshqa davlatlar	5,9	4,6	6,2



¹ qiymat ifodasidan

2024-yil yanvar-iyun oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **35,3** %), bu XXR eksport hajmidan **11,9** % ga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.


To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-iyun oylari yakuni bo‘yicha **32 170,0** ming AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **8,8** % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur‘ati **74,9** % ni tashkil qildi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**52,2** %), Gilam mahsulotlari (**21,5** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **74** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **25** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, ming AQSh dollari)

		2023-yil	2024-yil
Jami		42 941,4	32 170,0
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari	22 302,0	16 777,4
	Gilamlar	6 888,7	6 900,5
	Ipak va ipak mahsulotlari	5 444,7	2 368,2
	Naqshli mato	3 848,1	2 104,7
	Paxtadan gazlamalar	1 532,7	387,5
	Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	2 677,7	3 233,1

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-iyun, ulushi foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi **28,2** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **7,7** % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **62,3** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) xizmatlar (**44,9** %), transport xizmatlar (**37,9** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**9,3** %), moliyaviy xizmatlar (**7,9** %) hissasiga to'g'ri kelgan. Bu oyda boshqa ish bilan bog'liq xizmatlar amalga oshirilmagan.



SAMARQAND VILOYATINING IMPORT




2024-yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi **1 054,6** mln. AQSh dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan **120,3 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (**31,9 %**), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**26,9 %**) hamda sanoat tovarlari (**23,4 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-iyun, ulushi foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **176,8** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **1 051,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **2,7** mln. AQSh dollariga yetdi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Jami import	876,5	1 054,6	105,6	120,3	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	86,3	97,4	98,7	112,9	9,8	9,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,4	38,2	12,3 m.	0,0	0,04
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	30,9	31,8	69,7	103,0	3,5	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	21,8	16,3	184,4	74,7	2,5	1,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	20,6	18,9	195,6	92,0	2,3	1,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	224,1	283,6	111,0	126,5	25,6	26,9
Sanoat tovarlari	217,1	246,4	98,0	113,5	24,8	23,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	252,7	336,0	108,3	133,0	28,8	31,9
Turli xil tayyor buyumlar	21,6	21,1	122,1	97,3	2,5	2,0
Xizmatlar	1,4	2,7	111,1	191,5	0,2	0,3



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-iyun)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Hayvonlar uchun ozuqalar	34,2	142,6
Meva va sabzavotlar	29,1	2,1 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	15,9	45,9
Tirik hayvonlar 03 bo'limdagilarni qo'shgan holda	5,5	87,9
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,4	12,2 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	11,1	95,3
Probka va yog'och-taxtalar	6,8	85,8
Qog'oz massasi va makulatura	4,2	130,6
To'qimachilik tolalari	2,9	2,2 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	15,3	75,7
Ko'mir, koks va briketlar	0,9	62,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	18,5	94,4
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,4	42,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	185,7	136,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	43,5	143,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	21,2	119,6

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	155,0	128,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	39,7	111,0
Metalldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	13,5	102,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	11,8	74,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	105,9	2,3 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'jallangan mashinalar	62,8	62,8
Boshqa transport uskunolari	54,4	9 074,3 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	8,3	93,7
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6,7	106,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3,2	98,2
Poyabzal	1,2	90,8
Xizmatlar		
Transport xizmati	2,6	188,1



2024-yil yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlaridan import ulushi **31,5** % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **4,4** % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari



2024-yil yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyati **86** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Sloveniya, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya, va Polsha) jami importning **75,3** % ulushini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, (2024-yil yanvar-iyun,) foizda






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Xitoy Xalq Respublikasi	256,6	257,7	170,3	100,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	188,7	231,6	112,3	122,8	2	2
Turkiya	66,7	86,4	129,7	129,5	4	3
Sloveniya	18,9	79,8	79,9	4,2 m.	7	4
Qozog'iston	103,4	75,3	76,3	72,8	3	5
Germaniya	20,1	38,6	83,6	191,9	6	6
Polsha	22,7	23,9	2,9 m.	105,4	5	7
Yaponiya	1,3	23,3	2,7	17,5 m.	40	8
Hindiston	15,9	21,8	50,0	137,2	9	9
Litva	15,3	19,3	121,5	126,1	10	10
Latviya	15,1	16,1	121,5	106,6	11	11
Eron Islom Respublikasi	17,5	15,3	114,8	87,1	8	12
Gruziya	8,0	12,8	83,7	159,2	15	13
Bangladesh	8,9	11,6	136,0	131,4	14	14
Italiya	10,1	11,6	2,1 m.	115,2	12	15
Niderlandiya	9,7	9,5	109,6	97,4	13	16
Tailand	1,3	7,3	40,2	5,4 m.	39	17
Shveytsariya	2,9	7,1	70,6	2,5 m.	30	18
Vengriya	4,9	6,9	59,1	140,1	21	19
Ukraina	4,3	6,9	19,5	159,6	25	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024-yil yanvar-iyun)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **63,2 %** ulush bilan **666,2** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,1 %** ulush bilan **1,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024-yil yanvar-iyun, hajmi mln. AQSh dollari, ulushi foizda)



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **2,7** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,3** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **91,5** % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**95,8** %) va safarlar (**3,5** %) boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**0,7** %) ga tegishli bo'ldi.




Xizmatlar importida eng yuqori hajm transport xizmatlari **2,6** mln. AQSh dollarini yoki **95,8** % ini tashkil etgan bo'lsa, qolgan **4,2** % ini boshqa xizmat turlari tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi **246,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **113,5** % ni tashkil qildi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **23,4** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024-yil yanvar-iyun, ulushi foizda)

122,7 mln. AQSh doll.
ulushi – **49,8** %



**Rossiya
Federatsiyasi**

54,9 mln. AQSh doll.
ulushi – **22,3** %



XXR

22,7 mln. AQSh doll.
ulushi – **9,2** %



Qozog'iston

21,5 mln. AQSh doll.
ulushi – **8,7** %



Turkiya

10,8 mln. AQSh doll.
ulushi – **4,4** %



Bangladesh



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan va po'lat (**155,0** mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**39,7** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tasniflanmagan (**13,5** mln. AQSh dollari), Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**11,8** mln. AQSh dollari), va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel. 66-235-65-80